



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
UMUMIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**"GLOBALASHUV VA INTEGRATSIIA SHAROITIDA ZAMONAVIY
PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"
RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2024-YIL, 25-MART. ANDIJON**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В
УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ»
25 МАРТ 2024 Г. АНДИЖАН**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "ACTUAL
PROBLEMS OF MODERN PSYCHOLOGY IN THE CONTEXT OF
GLOBALIZATION AND INTEGRATION"
ANDIJAN 2024, 25-MARCH**



ANDIJON 2024

1. Akopyan K.Z. Samoubiystvo: problema motivatsii.// Psixologicheskiy jurnal. 1996.-№6. 16-23bet.
2. Moxikov A.N. Suitsid: Xrestomatiya po suitsidologii. – Kiev 1996.208 –bet.
3. Xalilova N.I., Ataboeva N.B. Suitsidal xulq-atvor diagnostikasi va profilaktikasi. 6-10 bet.
- 4.D.Saliyeva maqolaBolalar va o'smirlar o'rtasida suitsidal xulq- atvorni kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish.

Chet ellik talabalarning "universitet va jamiyat" hayotiga ijtimoiy-psixologik moslashishining o'ziga xos xususiyatlari.

**Nazarova Manzura Mustafo qizi
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi tayanch doktoranti**

Bugungi zamon shiddat bilan o'zgarayotgan bir sharoitda mamlakatlararo har sohada hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Shulardan ta'lim eksporti haqida alohida to'xtalib o'tish joizdir. Sir emaski, bugungi kunda xorijiy institatlarda ta'lim olishni xohlovchi o'zbekistonlik yoshlarning safi sezilarli darajada ortib bormoqda. Ko'pchilik o'zbekistonlik talabalar xorijda o'qishni havas qilishadi. Ammo bugun xorijdan O'zbekistonga kelib tahsil olayotgan talabalar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Davlat statistika qo'mitasining bildirishicha, 2022-2023-o'quv yilida respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 6,1 ming nafarni tashkil qilgan. O'zbekistonda tahsil olishni xohlovchi xorijlik talabalarning safini kengaytirish orqali universitetning madaniy, axloqiy, tadbirdorlikni takomillashtirish nuqtayi nazaridan jamiyat rivojiga salmoqli hissa qo'shishini alohida ta'kidlash lozim. Biz ayni paytda davlatimiz oliygochlari o'qiyotgan chet ellik talabalarning ta'lim tizimiga hamda O'zbekiston muhitiga psixologik adaptatsiya hosil qilishlari bilan bog'liq qanday holatlar yoki qiyinchiliklarga duch kelayotganlari haqida qiziqdik. Aksariyat chet ellik talabalar o'zga mamlakatda ta'lim olishni tanlaganliklarining asosiy sababi sayohat qilish, boshqa millat va elatlarning urf-odatlari, madaniyatlar bilan yaqindan tanishish orzusi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlashdi. O'zbekistonga kelib ta'lim olish ular uchun katta tajriba sifatida xizmat qilayotganligini, yangi madaniyat va tilni o'rganish juda qiziqarli ekanligini bildirishdi. Mahalliy sharoitga va ta'lim jarayoniga tezroq hamda osonroq adaptatsiya hosil qilish uchun, avvalo, til o'rganish lozimligini aytishdi. Biz tadqiqot ishimizda, asosan, Hindiston va Pokistondan kelgan talabalar bilan so'rovnomalar o'tkazdik. Ularning fikrlaricha, O'zbekiston universitetlarini boshqa xorij oliy ta'lim muassasalarini bilan solishtirish qiyin. Universitet doim dasturlarini, ta'lim jarayonini va sifatini yaxshilashga, kamchiliklar ustida ishlashga harakat qilinayotganini, professor-ustozlar ham malaka oshirish kurslarida o'qiyotgani, chet davlatlarga borib trening o'tib kelishi rivojlanish ketayotganidan dalolat berishi haqida aytib o'tishdi. Shuningdek, talabalarning bir biriga bo'lgan munosabati haqida ham to'xtalib o'tishdi. Bu yerda barcha bir-biriga xushmuoamala va barcha bir-biriga o'z oilasi a'zosidek qarashi, hurmat bilan munosabat qilishi haqida fikr bildirishdi.

Chet ellik talabalar O'zbekiston haqida ma'lumotni jahon hamjamiatiga tarqatish uchun juda muhim kanaldir[1,63]. Shuningdek, chet ellik talabalarni universitetga, shaharga, mamlakatga moslashtirishga qaratilgan texnologiyalar amaliy, samarali xarakterga ega bo'lishi uchun o'zbek madaniyatining qadriyatlari ijtimoiy-psixologik asosga aylanishi kerak. Xalqaro talabalarni moslashtirish muammosining ko'plab tadqiqotchilari o'zbekistonlik talabalarni boshqa mamlakatlardan kelgan boshqa talabalar bilan muloqot qilishda boshqa madaniyat namoyishlarini qabul qilishga tayyorlash kerakligini ko'rsatdi. Chet ellik talabalarning ba'zi xatti-harakatlarini birma-bir talqin qilish qiyin bo'lgan o'qituvchilarning muammolarini hal qilish kerak. Shubhasiz, madaniyatlarning to'qnashuvi nafaqat ta'lim jarayonlarining sifatini keskin yomonlashtirishi, balki, og'ir shaxslararo nizolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ta'lim sohasidagi turli mamlakatlar vakillari o'rtasidagi aloqa jarayonlarini takomillashtirishga, madaniyatlararo moslashuvni kuchaytirishga yordam beradigan xizmat ko'rsatish texnologiyalaridan ijtimoiy-psixologik jihatdan faolroq foydalanish zarur. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar deganda, madaniy-ijodiy jarayonlarda, xususan, kompetensiyalarni rivojlantirishda, yangi bilimlarni yaratish tashabbuslarini amalga oshirishda,

shaxsni ijtimoiylashtirishda qo'llaniladigan texnikalar majmuyi tushuniladi[2,41]. Chet ellik talabalarni ular uchun yangi muhitga, ta'limga tizimiga moslashtirish jarayonida qo'llaniladigan eng samarali ijtimoiy-psixologik texnologiyalar ularni ijodkorlik, turizm, sport, sog'liqni saqlash kabi turli jabhalarga jalg qilish uchun yordam beradi. Biroq, psixologik ta'sir texnologiyalarining turlarini tanlashda chet ellik talabalarning etnik o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish muhimdir, boshqa mamlakatlar vakillarining etnik-madaniy stereotiplariga, etnik qadriyatlar tizimiga va taqiqlarga qarab xulq-atvor reaksiyalarini namoyon qilishga e'tibor qaratish lozim.

Ta'limga jarayoni mobaynida chet ellik talabalarda samarali adaptatsiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun madaniyatlararo muloqotni mamlakatlar bo'ylab teatrlashtirilgan sayohatlar, vokal va xoreografik improvizatsiyalarni tomosha qilish, an'anaviy hunarmandchilikni o'zlashtirishga jalg qilish kabi ijtimoiy-psixologik texnologiyalar orqali optimallashtirish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, turli millatga mansub bo'lgan shaxslar etnikkelib chiqishiga qarab bir xil vaziyatlarga turlicha munosabatda bo'lishadi, shuning uchun chet ellik talabalarni boshqa voqelikka moslashtirishning birinchi bosqichi rolli o'yinlar, taqdimotlar va mini-suhbatlardan foydalangan holda madaniyatlararo aloqa bo'yicha treningni o'z ichiga olishi kerak.

Psixologik-trening orqali quyidagi holatlar o'z yechimini topishiga ahamiyat qaratish darkor:

- xalqaro talabalarni o'zlarini uchun yangi ta'limga muhitiga muvaffaqiyatli moslashtirish omillarini aniqlash;
- chet ellik talabalarni moslashtirish uchun madaniyatlararo aloqa bo'yicha treningning xususiyatlarini ko'rib chiqish

Shuningdek, tadqiqot davomida kuzatish, tavsiflash, suhbat, intervyu kabi psixologik metodlar ham qo'llanildi. Chet ellik talabalarni universitet ta'limga tizimiga, muhitiga moslashtirish muammosini o'rganish yuzasidan Maksimchuk, Gruzdeva, Starosvetskaya, Morozova, Urvantseva, L.V.Vygotskiy, A.D.Jarkov, G.L. Tulchinskiy, B.M.Teplov kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, universitetlarning xalqaro bo'limlari vakillari, o'qituvchilar va oliy ta'limga muassasasi psixologlari tomonidan xorijlik talabalar uchun madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan samarali texnologiya sifatida moslashtirish bo'yicha psixologik treninglarning tashkil etilishi va o'tkazilishi chet ellik talabalar orasida universitetning ta'limga tarbiya muhitida ham, uning joylashgan shahrida ham mamlakatni to'g'ridan-to'g'ri idrok etish imkonini beradi.

Chet ellik talabalar moslashuvining muvaffaqiyati talabaning atrof-muhit bilan hamkorlikda samarali faoliyat olib borishida, ijtimoiy-psixologik jihatdan harakat qilish qobiliyatini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Yuqori darajaga erishish uchun xorijiy talabalarning o'quv mashg'ulotlari doirasida, shuningdek, samarali maqsadlar uchun xalqaro loyihalarda ishlash, universitet talabalarini o'rtasida madaniyatlararo kompetensiyani eng muhim omil sifatida shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik texnologiyalar tizimini ishga tushirish kerak. Chet ellik talabalarning past o'quv mahsulorligining eng aniq omillari, asosan, uni universitet muhitiga integratsiyalashuvining dastlabki bosqichlarida, o'quv topshiriqlarini o'z vaqtida bajarmaslik, universitetning o'zida ham, tashqarisida ham mahalliy madaniyat vakillari bilan qoniqarsiz munosabatlar, universitetning qabul qilingan korporativ madaniyati normalarini o'zlashtirishga qobiliyatsizlik bo'lib hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, muloqot tilini bilish omili xorijlik talabani ayni damda o'zi bo'lib turgan mamlakatning iqlimiga, yangi vaqt zonasiga, yashash muhitiga va jismoniy faoliyat rejimiga, ovqatlanish rejimiga va tarkibiga moslashishi, shuningdek, o'z o'quv guruhi, fakulteti talabalarini bilan norasmiy aloqalarning mavjud bo'lishi, o'qituvchilar, mahalliy aholi bilan yaxshi munosabatlar, tashkilot usullari to'g'risida xabardorlik o'quv jarayoni, o'quv faoliyati samaradorligi mezonlarini o'zlashtirish hamda ijtimoiy-madaniy, psixologik moslashishni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Y.A.Aleksandrovskiy. "Состояния психической адаптации и невротические расстройства". М.: ГЭОТАРМедиа, 2012 yil.
- 2.D.A.Andreyeva. "О понятии «адаптация»: исследование адаптации студентов к условиям учебы в вузе". О'quv qo'llanma. 1978 yil.
- 3.L.T.Chernisheva. "Формирование межкультурной компетентности иностранных студентов посредством адаптационного тренинга в рамках реализации третьей миссии университета". Theory & Practice ISSN 2686-8725 (online) ISSN 2500-0039 (print) 2022 yil..

| | | |
|---|--|-----|
| Мухторов Отабек | Ёшларни турли ахборот хуружларидан ҳимоя қилишнинг ижтимоий-психологик усуслари | 274 |
| Mamajonova Sh.M. | Egotentrizm ko'rsatgichining psixologik xususiyatlari va `osmirlik dialogiyasi hususida | 277 |
| Matyoqubova Shohista Odamboy qizi | O'smir shaxsining rivojlanishida axborotlarning idrok eishda ijtimoiy ustanovkalarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlari | 281 |
| Matyoqubova Shohista Odamboy qizi | O'smir shaxsining rivojlanishida axborotlarning idrok etishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari sharq mutafakkirlari talqinida | 283 |
| T.T.Madumarov I.N.Muzaffarov | Xozirgi kunda yoshlar va axborotning psixologik xavfsizligi | 285 |
| T.T.Madumarov Toshpo'latov Obidjon | Ta`limda psixologik xizmat | 287 |
| Mominova Khijran Eldarovna | Psychological service to the child in the preschool education system | 289 |
| Чори Насридинов Лола Рахимова | Тушункисиз “тушунча”лар | 292 |
| Suleymanova To`xtaxon Nabijonova Munisa | Og`ishgan xulq atvorga moyilligi bo`lgan shaxsning psixikasida ruxiy psixoanalitik mexanizmlarning o`rni | 294 |
| Nazarova Manzura Mustafo qizi | Chet ellik talabalarning "universitet va jamiyat" hayotiga ijtimoiy-psixologik moslashishining o`ziga xos xususiyatlari | 297 |
| Normamatova Nazira Alijon qizi | Talaba yoshlarda nikoh oldi yetuklilikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari | 299 |
| Ne'matullayeva Sarvinoz Xushvaxt qizi | Art-terapiyada izoterapiyadan foydalanish | 301 |
| X.Nabiyeva | Ta`lim jarayonida kasbiy ko`nikmalarni baholashda muloqotning o`rni | 303 |
| Насырова Зарина Мунировна | Психолого-педагогическая диагностика деятельности учителя | 304 |
| Ўқтамова Шохидা Одилбек қизи | Вояга етмаганлар ўртасидаги хукуқбузарликлар профилактикасига доир фаoliyatning хукуқий асослари | 307 |
| O'ktamova Shohista Odilbek qizi | Maktabgacha yosh davridagi bolalarda nutqni shakllantirishning psixologik jihatlari | 310 |
| O'rolova Sojida Xayitboy qizi Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi | Yosh oilalarda oilaviy munosabatlar tizimi rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari | 313 |
| A.Odiljonova Soibjonov Arabboy | Kichik mакtab yoshidagi bolalarda diqqat barqarorligini ta'minlashning psixologik jihatlari | 316 |
| A.Odiljonova Abdug'ofurov Yodgorbek | Oilada muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik determinantlari | 317 |
| Д.Д.Ориббоева | Ўспиринларда ижтимоий компетентликнинг шаклланиши ва ривожланиши | 319 |
| Ориббоева Дилафрўз Дадамирзаевна | Келажак ўқитувчисида ижтимоий компетенцияни ривожлантиришнинг ўзига хослиги | 321 |
| Omonov Oybek Begmurod o`g`li | O'smirlarda destruktiv xulq-atvor shakllanishida virtual olamning tasiri | 324 |
| O.K.Odamova | Psixolog kasbiy faoliyatida proffessional turg'unlik (stagnatsiya) | 327 |
| Xusniddin Orziqulov | Talabalarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish | 329 |
| Payziyeva M.N | Sport jamoasida shaxs psixologiyasi roli va funksiyalari | 331 |
| Qodirova Dilbahor | Psixologiyada shaxs ijtimoiylashuvi muammosi | 333 |
| Qozoqova Intizor Ismoiljonovna | Talabalarda bag'rikenglikni shakllantirishning psixologik jihatlari | 334 |
| Qodirov Mirzaakram Sobirjonovich | Bojxona xizmati xodimlari faoliyatida muloqot psixologiyasi | 336 |
| Qahharova O'g'iloy Adxamjon qizi | Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy me'yorlarning o'rni va psixologik xususiyatlari | 338 |
| O.Dj.Qodirova | Oilada er va xotin nizolarini bartaraf etishda emotsional intellektning ta'siri | 340 |
| Qoryog'diyev Sherzod Shuxrat o'g'li | Talabalarning ehtiyojlar tizimida kasbiy yo'nalganlikni eksperimental tadqiq etishning o'ziga xosligi | 342 |
| B. Rayimho'jayeva | Muloqot shaxslararo munosabatlarning muhim omili sifatida | 345 |
| Paxmonova Dilnoza Farmanovna | Inspektor-psixolog kasbiy kompetentlik omillarini tadqiq etishning ahamiyati | 346 |
| Rasulova Dilnoza Serobiddinovna | Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning psixologik omillari | 348 |
| Ro'zimova Feruza Madrimovna | O'smir yoshdagи o'quvchilarda ahloqiy tarbiyani rivojlantirishning pedagogik jihatlari | 350 |
| Rahimova Gulhayo | Shaxslararo munosabatlarning oila negizada ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari | 352 |
| Реймбаева Гулчехра Санатиллаевна | Амалий психологияларни касбий қайта тайёрлаш масалалари, мактабгача таълим муассасасалари мисолида | 354 |
| Rustamova Go'zal Xolmuhammad qizi | O'spirinlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning | 360 |